

TARBIYACHILARNI KASBIY TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Usarova Muborak Xabibulla qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Ta'lismi va tarbiya nazariyasi
va metodikasi (mактабгача та'lим) fakulteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Bu maqolada shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularni ta'lim jarayonida samarali tashkil etish shakllari keltirilgan. Ta'limga tashkil etishning innovatson vositalari, tarbiya texnologiyalari ta'limming asosiy turlari va innovatsion shakllari, maqsadlar daraxti metodi, amaliy o'yinlar va assessment metodlari keltirilgan.*

Abstract: *This article presents individual-oriented modern educational technologies and forms of their effective organization in the educational process. Innovative means of educational organization, educational technologies, the main types and innovative forms of education, goal tree method, practical games and assessment methods are presented.*

Kalit so'zlar: *shaxs, ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning turlari, ta'limming innovatsion shakllari, innovatsion metodlar, innovatsion vositalar, o'quv loyihalari, portfolio, talabalar portfoliosi.*

Key words: *person, education, person-oriented education and its types, innovative forms of education, innovative methods, innovative tools, educational projects, portfolio, student portfolio.*

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari talabani ta'lim tizimining markaziga qo'yib, uning rivojlanishi uchun qulay, ziddiyatli va xavfsiz sharoit yaratib, uning tabiiy potensialini ro'yobga chiqaradi. Bu texnologiyada talaba shaxsi nafaqat premet, balki ustuvor premetdir; u har qanday abstrakt maqsadga erishish vositasi emas, balki ta'lim tizimining maqsadidir. U talabalarning o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos holda individual o'quv dasturlarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Tarbiya texnologiyalarini talabani kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirishning yetakchi mexanizmi sifatida qo'llash. Tarbiya texnologiyalari zamonaviy ta'lim sharoitida muhim omil hisoblanadi. Talabalarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlanishi uchun qo'shimcha shakllarga jalg qilish: milliy an'analar, teatr san'ati, ijodiy markazlar asosida madaniy tadbirdarda ishtirok etish va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limming asosiy turlari va innovatsion shakllari.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faoliyklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadiga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limming innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. Ayni o'rinda ta'limming innovatsion xarakterga ega ushbu shakllari to'g'risida so'z yuritamiz.

Amaliy o'yinlar. Dastlab "o'yin" tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi.

O'yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda ta'lif amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o'yinlardan samarali foydalanilmoqda.

Amaliy o'yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o'yinlar. Ta'lif amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda "didaktik o'yinlar" deb yuritiladi. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin sub'ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan.

Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanlanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lif berish xususiyatlariga ega. Mayjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogikada o'yinlar ta'lif jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lif oluvchilarning o'quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo'llaniladi:

-tushuncha, mavzu va alohida bo'lim mohiyatini o'zlashtirishda alohida texnologiya sifatida;

- pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida;
- o'quv mashg'uloti shakli yoki uning bir qismi sifatida;
- sind (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri ("Zakovat", "Bilimdon", "Huquq fani bilimdoni" va b.) sifatida.

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'larning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi.

Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi. Ta'lif muassasalarida ko'p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo'llaniladigan o'yinli texnologiyalarining asosini talabalarning faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi. Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida talabalar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kasbiy faoliyatni rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta'lif texnologiyalari (**shaxsga yo'naltirilgan, muammoli**) va metodlari (**maqsadlar daraxti, "assisment"**) asosida ishlab chiqildi.

"Maqsadlar daraxti" metodi. "Daraxt" atamasi umumiy maqsadlarni quyi

maqsadlarga bo'lish yo'li bilan olingen ierarxiyalı tuzilmalardan foydalanishni nazarda tutadi. "Maqsadlar daraxti" uslubi maqsadlarning (muammolarning, yo'nalishlarning) nisbatan mustahkam tuzilmasini olishga yo'naltirilgan. Bunga erishish uchun tuzilmaning dastlabki

variantini shakllantirganda maqsadni shakllantirish qonuniyatlarini hisobga olish va ierarxik tuzilmalarni shakllantirish tamoyillaridan foydalanish kerak. Tadqiq qilinayotgan murakkab tizimning vazifalar maqsadining soni va turli tumanligi katta bo'lganligidan biron-bir tahlilchi ularning tarkibini TTsiz aniqlay olmaydi. Amaliyotda qo'llanilgan va qulay bo'lgan tadqiqot maqsadi instrumenti sifatida maqsadlar daraxti ko'rinishidagi maqsadlar modeli qurilmasidan foydalanish mumkin.

Maqsadlar daraxtini qurish maqsadlarni boshqaruva darajalariga ajratish jarayonini formal ravishda aks ettirish uchun amalga oshiriladi. Maqsadlar daraxti ko'magida ularning tarkibi, o'zaro aloqalari, tartibga solingan ierarxiyasi izohlanishi uchun bosh maqsad quyidagi qoidalarga ko'ra quyi maqsadlarga ketma-ket dekompozitsiya qilinadi:

- grafaning cho'qqisida joylashgan bosh maqsad so'nggi natijani o'zida mujassamlashtirishi kerak;
- umumi maqsadni maqsadlarning ierarxik tuzilmasiga ajratayotganda quyidagi shartlardan kelib chiqiladi: har bir keyingi pog'onaning quyi maqsadini tatbiq qilish yuqori pog'ona maqsadiga erishish uchun zarur va yetarli shart hisoblanadi;
- turli pog'ona maqsadlarini shakllantirishda istalgan natijalarni izohlash kerak (ularga erishish usullarisiz);
- har bir pog'ona quyi maqsadi bir-biridan mustaqil va bir biridan kelib chiqmaydigan bo'lishi kerak;
- muayyan usul bilan oldindan belgilangan muddat bo'yicha bajarilishi mumkin bo'lgan ishni aks ettiruvchi vazifalar maqsadlar daraxti asosini tashkil qilishi kerak. Masalan, maqsadlar daraxtining cho'qqisida keltirilgan maqsad 1 sifatida "Pedagogik texnologiyaning maqsadi"ni ko'rsatish mumkin; maqsad 1.1 - "innovatsion faoliyatni tashkil etish", maqsad 1.2 - "kasbiy faoliyat"; maqsad 1.2.1 - "funksional komponentlar ", maqsad 1.2.2 - "innovatsion faoliyatni baholash" va boshq.

"Maqsadlar daraxti" metodining tuzilishi. Assesment metodini qo'llash.

Metodning maqsadi: mazkur metod bo'lajak o'qituvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur metod orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati test olish, muammoli vaziyatlarni yechishni mashq qilish bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: "Assesment"lardan ma'ruza mashg'ulotlarida mayjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy-ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Xulosa: Maqolada xar bir ta'lim muassasalari uchun foydalana oladigan metodikalar yoritib berilgan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida metodikalar ishlab chiqilgan. Talabalar bilan amaliy ishslash jarayoni va o'yin metodikasi shaxsga yo'naltirilgan (muammoli ta'lim) maqsadlar daraxti assementni keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>

2. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'kitish texnologiyalari. - T.: 2001. - 69 b.

3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006. - 160 b.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. - T.: "Iste'dod" Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. - 275 b.jamg'armasi, 2008. - 180 b.